

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

UO'K(UDC, УДК): 81-26

ARAB TILIDAN O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIGA O'ZLASHGAN
SO'ZLARNING QIYOSIY ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA ⁷*Nasirov Abduraxim Abdimalipovich*

O'zDJTU prorektori,

Filologiya fanlari doktori, professor

E-mail: a.nasirov@uzswlu.uz

Tel: +998 99 857 42 13

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Ushbu maqolada arab tilining o'zbek tiliga turli tarixiy bosqichlarda bo'lgan ta'siri keng tahlil qilinadi. Arab tilidan fransuz tiliga o'zlashgan so'zlar va ularning etimologiyasi xususida ham fikrlar yuritilgan. Arab tilidan kirib kelgan so'zlarning ilk davrlarda asosan diniy va ilmiy kontekstlarda ishlatilganligi, keyinchalik esa kundalik tilga ham singib borishi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, islom dini tarqalishi bilan bog'liq holda arab tilidan o'zbek tiliga kirgan Qur'on, hadis, fiqh atamallari va ilmiy terminologiya tahlil qilinadi. Maqola arabcha so'zlarning o'zbek va fransuz tillaridagi lingvistik va madaniy boylikni oshirishdagi rolini yoritishga qaratilgan.

Hadis, fiqh,
terminologiya, fransuz,
kontekst, mantiq,
kontsept, etimologiya,
lingvistik boylik,
tovushlar tizimi.

Received: March 3, 2025**Accepted:** March 29,
2025**Available online:** May 2,
2025⁷ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Nasirov A. Arab tilidan o'zbek va fransuz tillariga o'zlashgan so'zlarning qiyosiy etimologiyasi xususida. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 87-99.

COMPARATIVE ETYMOLOGY OF WORDS BORROWED FROM ARABIC TO UZBEK AND FRENCH

Nasirov Abdurakhim Abdimutalipovich

Vice-Rector of UzSWLU,

Doctor of Philological Sciences, Professor

E-mail: a.nasirov@uzswlu.uz

Tel: +998 99 857 42 13

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the influence of the Arabic language on Uzbek over various historical periods. Thoughts were also expressed about words borrowed from Arabic into French and their etymology. It highlights how Arabic loanwords were initially used mainly in religious and scientific contexts, and later gradually integrated into everyday language. In particular, the article examines the Arabic terms related to the Qur'an, Hadith, fiqh, and scientific terminology that entered Uzbek with the spread of Islam. The article aims to highlight the role of Arabic words in enhancing the linguistic and cultural richness of the Uzbek and French languages.

KEY WORDS

Hadith, fiqh, terminology, French, context, logic, concept, etymology, linguistic richness, sound system.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ЭТИМОЛОГИЯ АРАБСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В УЗБЕКСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

Насиров Абдурахим Абдимуталипович

проректор УзГУМЯ,

доктор филологических наук, профессор

E-mail: a.nasirov@uzswlu.uz

Тел: +998 99 857 42 13

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА

В данной статье подробно анализируется влияние арабского языка на узбекский язык на разных исторических этапах, а также рассматриваются заимствования из арабского языка во французском языке и их этимология. Показано, что слова, заимствованные из арабского языка, в ранние периоды использовались в основном в религиозных и научных контекстах, а позже проникли и в повседневный язык. В частности, анализируются термины Коран, хадисы, фикх и научная терминология, которые вошли в узбекский язык из арабского языка в связи с распространением ислама. Статья направлена на освещение роли арабизмов в умножении лингвистического и культурного богатства узбекского и французского языков.

Хадис, фикх,
терминология,
французский, контекст,
логика, концепт,
этимология,
лингвистическое
богатство, система
звуков.

KIRISH

Shveysariyalik olim Sh. Balli “Tilni o‘rganish, ma’lum ma’noda, ongsiz holda bo‘lsa ham, uni tarixiy o‘rganish hisoblanadi”, - degan edi. (Balli Sh., 2009, 79) Til tarixi so‘z tarixidan boshlanadi, so‘z tarixini o‘rganish til tarixi haqida xulosalarga olib keladi. Shu soha mutaxassisi emas, balki boshqa kasb egalari uchun ham muloqot jarayonida qo‘llyotgan so‘zlarimiz ma’nosi va uning kelib chiqish tarixi qiziq bo‘lishi tabiiy.

Har bir xalqning tili, leksik boyligi o‘ziga tegishli so‘zlar bilan bir qatorda boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarga ham egadir. Tillar doimo bir-birlari bilan muloqotda bo‘ladi, o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi va natijada tilda yangi so‘zlar paydo bo‘lib boradi. So‘zlar bir tildan boshqa til yoki tillarga o‘zlashadi, o‘sha tildan o‘rin oladi, xalq og‘zaki va yozma nutqiga singib borishi natijasida tillarning lug‘at boyligi ortib boradi. Xuddi shunday holatni ushbu maqolada arab tilidan fransuz va o‘zbek tillariga o‘zlashgan so‘zlar, ularning kelib chiqishi va o‘ziga xos xususiyatlari misolida ko‘rib chiqamiz.

Tillardagi o‘zgarishlar bu tarixiy jarayonlar ta’sirida og‘zaki nutqda yoki yozuvda paydo bo‘la boshlaydi. So‘zlarning o‘zlashishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vosita til orqali ham amalga oshadi. Arab tilining fransuz va o‘zbek tiliga ta’sirini bir xil mezonlar orqali yoritish qiyin masala. Chunki arablar va fransuzlar orasidagi munosabatlar, o‘tmish va tarixiy jarayonlar arablar va o‘zbeklar o‘rtasidagi xuddi shunday jarayonlardan tarixan ancha farq qiladi.

Arab tilidan o‘zbek va fransuz tiliga so‘zlarning o‘zlashishini tahlil qilishni arab tiliga doir ma’lumotlardan boshlaymiz. Ma’lumki, bugungi kunda arab olamidagi arab tilida muloqot qiluvchilar soni 345 millionni tashkil etadi. Butun dunyo musulmonlari uchun arab tili Qur’on tili bo‘lib hisoblanadi. Arab tilining dunyo miqyosida tarqalishiga e’tibor qaratilsa agar, hozirgi kunda Afrika qit’asida, Arab yarim orolida va Old Osiyoda joylashgan yigirma uchta arab davlatlarida, jumladan, Jazoir, Tunis, Mavritaniya, Marokash, Liviya, Misr, Sudan, Jibuti, Somali, Qamar orollari, Saudiya Arabistoni, Yaman, Ummon Sultonligi, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Qatar, Quvayt, Iordaniya, Iroq, Falastin, Livan, Suriyada

arab tili davlat tili hisoblanadi. Ushbu arab tilida gaplashuvchi davlatlar madaniyati va tilida ham ancha farq bor.

Arab tili somiy tillar guruhiga kiradi, unga yana Efiopiyaning amhar, tigre, qadimgi yahudiy, ivrit (Isroil), malta tillari ham kiradi. Bu tillarning barchasida soʻzlar asosan uch undoshli boʻlib, ularda affiksatsiya rivojlangan. Arab tilining baʼzi atamaları gʻarbiy va boshqa tillarga, shu jumladan oʻzbek tiliga ham rus tili orqali oʻzlashgan. Masalan, admiral, algebra, azimut, maskarad, tarif, zenit, emir, halva soʻzlari shular jumlasidandir.

Arab tilining oʻzbek tiliga taʼsiri diniy, ilmiy va madaniy sohalarda koʻproq oʻz aksini topgan. VIII asrda islom dini Markaziy Osiyoga kirib kelganidan soʻng, arab tili Qurʼon va diniy ilmlarning asosiy tili sifatida butun mintaqada keng qoʻllanila boshlagan. Arab tili faqatgina diniy atamalarni emas, balki ilmiy va ijtimoiy hayotda ishlatiladigan terminologiyani ham oʻzbek tiliga olib kirgan. Ushbu jarayon natijasida oʻzbek tili arab tilining boy leksikasidan keng foydalangan va bu tilning lugʻat tarkibi diniy-falsafiy, ilmiy-texnik va madaniy qatlamlar bilan boyitilgan.

Arab tili yozuvining taʼsirida oʻzbek va boshqa tillarga soʻzlar oʻzlashishi keng tarqalgan. Arab tili talaffuzi, arab tilining tovush tizimi orqali ham fransuz va oʻzbek tillarida yangi soʻzlar shakllangan deyishimiz mumkin.

Tashqi manba asosida lugʻat boyligining kengayishi oʻzbek tili doirasida 30-35 % ni tashkil etarkan. Arab tilining boshqa tillar qatorida oʻzbek tiliga ham taʼsirini va 55-60 foiz arab soʻzlarining oʻzbek tiliga oʻzlashganligini tilshunos olim Fotih Abdullayev oʻz tadqiqotlarida qayd etgan. (Abdullayev I., 1965, 4) Quyidagi misollarda aniqroq kuzatiladi. Fiqh ilmiga doir adabiyotlar, ilmiy asarlar arab tilida yozilgan boʻlib, bu soʻzlar fransuz, fors va boshqa tillar orqali oʻzbek tiliga ham oʻtgan uchun, “fatva” (فتوى *fatwā*), “ilm” (علم *ilm*), “hikmat” (حكمة *hikmah*) kabi soʻzlar arab tilidan oʻzbek tiliga kirib, oʻzbek diniy, ilmiy va falsafiy terminologiyasida ishlatilgan.

Hozirgi oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar koʻproq ot soʻz turkumiga tegishli boʻlib biron buyum, narsa yoki hodisaning nomlanishini **anglatadi**.

Muhandis, shirkat, lug‘at, rais, tolib, noib, talaba, kulliyot, hudud kabi so‘zlar ot so‘z turkumiga kiradi va aksariyat o‘zlashma so‘zlar ot turkumiga kiradi.

Arab tilida birlik, ikkilik va ko‘plik shakl bor, odatda o‘zbek tiliga ularning birlik shakli o‘zlashgan. Masalan, vatan – birlik, avtun - ko‘plik o‘zbek tilida tushunilmaydi. Ayrim so‘zlar arab tilidan o‘zlashgan ammo boshqa ma’no kasb etib ketgan, **masalan qomat** - bo‘y ma’nosiga o‘tib ketgan arab tilida esa uning ma’nosi turmoqni anglatadi. Sohib so‘zi ham o‘zbekchada xo‘jayin, ega ma’nosiga o‘tib ketgan arab tilida esa boshqa ma’no. Bir xil so‘zlar arab tilidan o‘zlashib ma’nosini umuman yo‘qotgan bisot arab tilida gilam, o‘zbek tilida esa bor narsalari, boylik, mol dunyo ma’nosini anglatadi. Bisotimdagi bor-budimni berdim. **“Tarix”** so‘zi arab tilida vaqt, sana, davr ma’nosini bersa o‘zbekchada fan predmet nomi va o‘tmish ma’nolariga o‘tgan.

Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar, o‘zbek tilida diniy iboralar sifatida qo‘llanilgan. “Imom” (إمام *imām*), “hazrat” (حضرة *ḥaṣṣrah*) kabi so‘zlar arab tilidan o‘zlashtirilgan va o‘zbek tilida diniy rahbarlarni ifodalashda keng qo‘llaniladi.

Arab tilining o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlari, bir tomondan, islom madaniyatining tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ilm-fan, tarix va falsafa sohalarida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Misol uchun, “kalam” (كلام *kalām*), “falsafa” (فلسفة *falsafah*), “hikmat” (حكمة *ḥikmah*) kabi so‘zlar o‘zbek tilida ilmiy, falsafiy va mantiqiy fikrlarni ifodalashda ishlatiladi. Bu so‘zlar, arab tilidan o‘zbek tiliga kirib, mintaqada ilm-fan va tafakkur sohalarining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Arab tilida yozilgan ilmiy asarlar, jumladan, matematika, tibbiyot, astronomiya va falsafaga oid matnlar, Markaziy Osiyo madaniyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Bu ilmiy asarlar, o‘z navbatida, o‘zbek tilida yangi ilmiy atamalar va tushunchalarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, ilmiy terminologiyaning o‘zbek tiliga o‘tishi va bu atamalarning kundalik hayotda ishlatilishi o‘zgarishlarni tezlashtirdi. Masalan, “algebra” (الجبر *al-jabr*) va “alximya” (الخيمياء *al-kīmiyā*) kabi so‘zlar, arab tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda ilmiy va texnik sohalarda keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, arab tilidagi tibbiyot sohasiga oid asarlar, masalan, Ibn Sino (980–1037) tomonidan yozilgan “Al-Qonun fi at-Tibb” (Tibbiyot qonuni) asari, tibbiyot va farmatsevtika sohasida yangi ilmiy atamalar va tushunchalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

“Tibbiyot” (طب *ṭibb*) va “dori” (دواء *dawā*), “mikroskop” (منظار *manzār*) kabi so‘zlar, arabcha ilmiy terminologiyaning o‘zbek tiliga kirishining natijasi sifatida paydo bo‘ldi. Ibn Sinoning asarlari o‘zbek tilidagi tibbiy va ilmiy so‘zlarning shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan va ular nafaqat ilmiy doiralarda, balki kundalik hayotda ham ishlatila boshlagan.

So‘zlarning bir tildan boshqasiga o‘tib borishida tarixiy yurishlar natijasida, jumladan, Salb yurishlari (Krestoviy poxod) 1096-1270-yillarda G‘arbiy Yevropa zodagonlari va katolik cherkovi tomonidan Yaqin Sharqqa Suriya, Falastin, Shimoliy Afrika davlatlariga qilingan bosqinchilik urushlari davrida Yevropa tillariga, jumladan, fransuz tiliga ham bir qator arab so‘zlari kirib kelgan va keyinchalik muloqotda muqim o‘rin topgan. Bunda madaniy aloqalar orqali, fransuz tili IX-XII asrlarda diniy va madaniy aloqalar natijasida arab tilidan ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirib olgan. Keyinchalik, siyosiy aloqalar davomida ham arab tili so‘zlari fransuz tiliga kirib kelgan bo‘lsa iqtisodiy aloqalar tufayli savdo-sotiq doirasida ham arab so‘zlari fransuz tiliga o‘zlashganliging guvohi bo‘lish mumkin. O‘zbek tilidagi sovun so‘zi, fransuz tilida "savon" deyilsa, arab tilida صابون *sabun* deyiladi. Ushbu nom aynan shu Salb yurishlari davrida o‘zlashgan.

Bir tildan boshqa tilga o‘zlashgan so‘zlarda fonetik moslashuv, ya‘ni mahalliy til talaffuziga chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarning talaffuzi moslashish holati ham kuzatiladi. O‘zlashgan arab so‘zlari o‘zbek va fransuz tillarining fonetik tizimlariga moslashib o‘zgaradi. Masalan, astronomiya sohasidagi arab tilidagi ilmiy asarlar ham Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Al-Farg‘oniy (9-asr) asarlarida astronomiya va matematika sohalaridagi arabcha ilmiy atamalarni o‘zbek tiliga kiritgan.

“Astronomiya” (فلك *falak*), “planet” (كوكب *kawkab*) kabi atamalar, arab tilidan o‘zbek tiliga kirib, ilmiy va kundalik tillarda keng qo‘llaniladi. Bu ilmiy asarlar nafaqat arab ilm-fanini, balki Markaziy Osiyo va Yevropa ilm-fanini ham

rivojlantirishda katta rol o'ynadi."Sufizm" (صوفية) atamasi, arab tilidan fors tiliga o'tgan va o'zbek tilida ham keng qo'llaniladigan diniy va falsafiy so'zdir. Bu atama, asosan, tasavvuf va diniy bilimlar bilan bog'liq bo'lib, o'zbek tiliga fors tili orqali o'tgani sababli, uning fonetik o'zgarishi mumkin bo'ldi.

Arab tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar fransuz tili orqali shakllangan holatlar ham uchraydi. Bu so'zlar asosiy arabcha ildizlarga ega bo'lib, fransuz tilida fonetik va morfologik o'zgarishlarga uchragan. Jumladan,

1. "Algebra" (الجبر *al-jabr*) - Bu so'z arab tilidan fransuz tiliga *algebra* shaklida o'tgan va o'zbek tilida ham aynan "algebra" shaklida ishlatiladi. Arabcha "al-jabr" so'zi "hisoblash" yoki "yig'ish" ma'nolarini anglatadi, fransuz tilida esa ilmiy hisob-kitoblar va matematikaga doir atama sifatida ishlatilgan. O'zbek tilida bu so'z matematikaning bir bo'lagi sifatida keng qo'llaniladi.

2. "Shakar" (سكر *sukkar*) - Arab tilidagi "sukkar" so'zi fransuz tiliga *sucre* shaklida o'tgach, o'zbek tilida "shakar" shaklida ishlatiladi. Arabcha "sukkar" so'zi shirinlikni anglatadi, fransuz tilida bu so'z shirin moddalar yoki shakarni ifodalashda qo'llanilgan. O'zbek tilida ham bu so'zning ishlatilishi keng tarqalgan va asosan oziq-ovqat mahsulotlarini anglatadi.

3. "Sir" (سر *sirr*) - Arabcha "sir" so'zi, fransuz tilida *secret* shaklida ishlatilgan va o'zbek tiliga ham "sir" shaklida kirgan. Arab tilida bu so'z yashirin yoki maxfiy ma'nolarini anglatadi, fransuz tilida esa sirni, maxfiy ma'lumotni yoki sirli narsalarni anglatadi. O'zbek tilida ham bu so'z yashirin yoki sirli ma'lumotlar uchun ishlatiladi.

4. "Kalendar" (تقويم *taqwim*) - Arabcha "taqwim" so'zi fransuz tilida *calendrier* shaklida o'tib, o'zbek tilida "kalendar" shaklida ishlatiladi. Arab tilidagi bu so'z vaqtni tartibga solish yoki sanalarni belgilashni anglatadi, fransuz tilida esa sanalarni belgilash tizimi yoki vaqt jadvali sifatida ishlatiladi. O'zbek tilida ham bu so'z yilni, oylik yoki haftalik taqvimlarni anglatishda ishlatiladi.

5. "Filosofiya" (فلسفة *falsafah*) - Arabcha "falsafah" so'zi fransuz tiliga *philosophie* shaklida kirib, o'zbek tilida ham "filosofiya" shaklida ishlatiladi.

Arabcha bu soʻz ilmiy va mantiqiy fikrlashni anglatadi, fransuz tilida esa falsafiy fikrlar tizimi sifatida ishlatilgan. Oʻzbek tilida ham bu soʻz ilmiy va falsafiy gʻoyalar tizimini ifodalashda qoʻllaniladi.

Lingvistik kontaktlar nazariyasiga koʻra, tillar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir muloqot va almashuv jarayonida sodir boʻladi. Arab tilining oʻzbek tiliga taʼsiri bir nechta bosqichlarda kuzatilgan:

1. Toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashuv: Arabcha soʻzlarning diniy matnlar va islom tarqalishi orqali kirib kelishi.
2. Vositali oʻzlashuv: Arabcha soʻzlarning boshqa tillar, xususan, fors va fransuz tili orqali kirib kelishi.

Arab tilidan fransuz tili orqali oʻzlashgan soʻzlar zamonaviy leksikaning ajralmas qismi hisoblanadi. Misol uchun, “shifer” (شيفير *shīfir*) arab tilidagi “shifr” (kod yoki raqamlar tizimi) soʻzidan olingan boʻlib, fransuz tiliga *chiffre* shaklida oʻtgan va keyinchalik oʻzbek tiliga kirgan.

Lingvistik kontaktlar nazariyasiga koʻra, hukmron madaniyatning tilga taʼsiri oʻta kuchli boʻladi. Arab tili islom dini orqali hukmron madaniyatning asosiy unsuri sifatida shakllangan. Natijada, arabcha atamalar oʻzbek tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri va vositali tarzda kirib kelgan. Bu jarayonning bir qismi sifatida fransuz tilidan oʻtgan arabcha ildizga ega atamalarni koʻrish mumkin. Masalan: “Kamera” (قَمَر *qamar* - oy) soʻzi arabcha manbaga ega boʻlib, fransuz tilida *camera obscura* tarzida oʻzlashgan va hozirgi maʼnosida oʻzbek tilida ishlatiladi. “Sahna” (سَحْنَة *saḥna* - yuz, maydon) fransuz tilida *scène* shaklida qabul qilingan va keyinchalik oʻzbek tilida teatr terminologiyasiga singdirilgan.

Fransuz tiliga arab tilidan 500 dan ortiq soʻzlar oʻzlashganligi Professor Pruvost maʼlumotlarida qayd etilgan. Fransiyadagi Serj Pontuaz universitetida leksikografiyadan dars beruvchi professor Jan Pryuvoning fikricha, arab tili fransuz tiliga taʼsir etishiga koʻra ingliz va italyan tillaridan keyin uchinchi oʻrinni egallaydi.

Fransuz tiliga arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar, leksik birliklar qatoriga *abricot*, *aubergine*, *orange*, *sucre*, *estragon*, *café*, *alambic*, *coton*, *jupe*, *carafe*, *alcôve*, *alchimie*, *alcool*, *amalgame*, *azur*, *goudron*, *cramoisi*, *algorithme*, *algèbre*, *assassin*,

cheik, cafard, arobase, calibre, arsenal, échec, hasard kabi soʻzlarni misol qilish mumkin.

Fransuz tilida arab tilidan soʻzlarning kirib kelish davri koʻproq oʻrta asrlarga toʻgʻri keladi, yaʼni arab davlatlarida ilm-fan, maʼrifat madaniyat rivojlangan davrlar.

Uygʻonishingiz bilanoq “tasse” (arabcha soʻz-chashka), “café” (arabchadan kofe), “sucre” (arabchadan shakar) va “apelsin” (arabcha soʻz) sharbati bilan ichganingizda kelib chiqishi arabcha soʻzlar yodingizga tushadi. Ushbu soʻzlarning aksariyati ingliz tiliga ham taʼsir koʻrsatgan va VIII asrda Yevropaning qolgan qismiga tarqalgan. Ular uning katta qismini taxminan 700 yil davomida ushlab turishgan.

Fransuz tilidagi “**abricot**” (oʻrik) soʻzi XVI asrda lotin tilidan fransuz tiliga qadimgi yunon, arab, ispan va katalon tillari orqali oʻtgan. Rimliklar uni “praecoquum” deb nomlagan, bu degani précoce (meva) degan maʼnoni anglatadi. Yunonlar uni rimliklardan πραικόκιον, praikókion shaklida olishgan, tarixiy talaffuzdagi oʻzgarishlar natijasida fransuz tilida abricot shaklida oʻrnashgan, maʼnosi - oʻrik.

Yoki **coton** (paxta) soʻzi qadimgi fransuz tilidan soton, eski okiten tilida soton, aslida XII asrda arabcha قطن qutun soʻzidan oʻzlashgan boʻlib paxta maʼnosini anglatadi, boshqa yevropa tillariga ham tarqalgan, ispan tilida algodón, portugal tilida algodão, nemis tilida Kattun, ingliz tilida cotton shaklida ishlatiladi.

Shuningdek, fransuz tilida **jupe** (yupka) soʻzi ham arabcha جبة djoubba soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, kurtka turini bildiradi, keyin fransuzlar italyan *jupasidan* qarzga olingan, fransuz **tilida** « jupe » oʻzbek **tilida** « yubka ».

« **Alcool** » soʻzi ham XIV asrda arab tilidan كحل - kohl (juda nozik kukun, surma), soʻzidan oʻzlashgan, 1278-yilda tasdiqlangan manbalarga koʻra ispan tiliga alcohol (antimoine (surma) shaklida oʻtgan, al- va khôl. Spirtli ichimliklar maʼnosida bugun fransuz tiliga ham, rus tiliga ham oʻzbek tilida oʻzlashib baynalmilal tus olgan deyishimiz mumkin.

Ayrim soʻzlar arab toponimlari bilan bogʻliq, *Bougie* (sham) tibbiy termin soʻzi Jazoir shimolidagi port shahar nomi bilan bogʻliq. *Mousseline* (muslin) soʻzi Iroqdagi Mosul joy nomi bilan bogʻliq, a gaze (marlya) Falastindagi Gʻazo sektori nomi bilan bogʻliq holatda kirib kelgan.

Fransuz tili orqali kirgan arabcha ildizli soʻzlar, ilm-fan va texnologiya sohalarida yangi atamalarni shakllantirishda muhim rol oʻynadi. XIX–XX asrlarda Fransiya ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarning markazi boʻlganligi sababli, fransuz tilida ishlatiladigan koʻplab ilmiy va texnik atamalar, Rossiya imperiyasi orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan.

Fransuz tilidagi “bilet” (billet) soʻzi, arabcha “bilet” (بليط) dan kelib chiqqan va fransuz tili orqali oʻzbek tiliga kirgan. Bu soʻz oʻzbek tilida transport va xizmatlar bilan bogʻliq boʻlib, ayniqsa, temir yoʻl va avtobus chiptalari bilan bogʻliq atama sifatida ishlatiladi. Fransuz tilining rus tili orqali oʻzbek tiliga kirishi nafaqat ilmiy va texnologik sohalarda, balki boshqa sohalarda ham oʻz aksini topgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, til aloqalarining ahamiyati shundaki, tillar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir va almashuv jarayonlari ularning rivojlanishi va boyishiga zamin yaratadi. Arab tili taʼsirining oʻzbek tili lugʻat tarkibiga qoʻshgan hissasi faqat tarixiy jarayonlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon madaniy va lingvistik jihatdan mintaqaning oʻziga xosligini ham shakllantirgan. Arabcha ildizga ega boʻlgan soʻzlarning fransuz tili orqali bilvosita oʻzlashuvi oʻzbek tilining zamonaviy lugʻat boyligini shakllantirishga katta hissa qoʻshgan. Etimologik tadqiqotlarning muhimligi esa soʻzlarning kelib chiqish manbalari va taraqqiyot bosqichlarini oʻrganish til tarixini tushunish uchun muhimdir. Til siyosatining roli oʻzlashma soʻzlarni qoʻllash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu mavzuning nazariy jihatlarini oʻrganish tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Балли Ш. Француз стилистики. Сўзлашув тил ва бетакаллуф нутқ. Француз тилидан И.Мирзаев таржимаси. Тошкент, 2009. 79 б.
2. Abdullayev I. Buxoroning arabiynavis shoirlari. T.: Fan, 1965. - 185 b.4.
3. Dubois, J. (1983). *Le Dictionnaire de la langue française*. Paris: Larousse.
4. Dubois, P. (1983). *The Influence of French on the Central Asian Languages*. Paris: Librairie Orientaliste.
5. Salah, G. (2015) *Dictionnaire des mots français d'origine arabe* Paris : Points
6. Saidova, S. *Arab tilidan o'zlashgan atamalarning lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari* Sam DCHTI magistranti
7. https://en.wiktionary.org/wiki/Category:Uzbek_terms_derived_from_Arabi
8. <https://www.etymonline.com>
9. Ориф, Т. (2024). *Тасаввур қилиш қийин: булар аслида арабча сўзлар* “Дарё” платформаси
10. Xoliyorov, O'. (2017). *Hozirgi o'zbek tili*. Ma'ruzalar matni.

REFERENCES

1. Balli, Sh. (2009). French stylistics. Conversational language and casual speech. P. 79.
2. Abdullayev, I. (1965). Arabic poets of Bukhara. T.: Fan. p. 4.
3. Dubois, J. (1983). *Le Dictionnaire de la langue française*. Paris: Larousse.
4. Dubois, P. (1983). *The Influence of French on the Languages of Central Asia*. Paris: Librairie Orientaliste.
5. Salah, G. (2015). *Dictionary of French Words of Arabic Origin*. Paris: Points.
6. Saidova, S. (2022). Lexical-semantic features of terms borrowed from the Arabic language. Scientific and practical conference on the topic “Current issues of teaching Oriental languages”, 2 (24). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6653681>.
7. https://en.wiktionary.org/wiki/Category:Uzbek_terms_derived_from_Arabi

8. <https://www.etymonline.com>
9. Orif, T. (2024). It's hard to imagine: these are actually Arabic words."Daryo" platform. <https://daryo.uz/2023/08/26/tasavvur-qilish-qiyin-bular-aslida-arabcha-sozlar>.
10. Kholiyorov, O'. (2017). Modern Uzbek language. Lecture texts.